

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr Baxtiyor Islamov	8
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov	10
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... Zufarova Nozima Gulamiddinovna	16
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	24
Yashil budjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	30
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari Yormatov Ilmidin Toshmatovich	35
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir Agzamov Shaxboz Akmalovich	39
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish A. X. Salamov	44
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida Dosmurotova Shaxista Kengashovna	48
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi Axmediyeva Aliya Toxtarovna	55
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	63
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari Shamsiyev Nodir Muratovich	67
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari Shagazatov Oybek bahodirovich	72
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari Davlatov Sanjar Abdimannonovich	76
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	80
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo’nalishlari Yuldasheva Kamola Miraliyevna	84
O’zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	89
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi Nazarova Umida Avazovna	94
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	98
Globallashtirish sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish Mirzayev Musurmon Umidullayevich	103
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati Fayziyeva Aziza Azamat qizi	108
Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	113
Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	119
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	123
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	129



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish	141
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	159
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	170
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
Зайнутдинова Умида Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
Mardiyev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar.....	203
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	207
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	213
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi	
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	226
Eshimov Alisher Dasmurodovich	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash	
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi).....	234
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	245
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati	
samaradorligini yanada oshirish.....	260
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	266
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
Sobirov Otabek Olimjonovich	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	277
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	281
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	284
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtrishda tahlil qilish.....	297
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari	302
Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	306
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	310
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	319
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	325
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирйўлийўловчи”	332
Н. Э. Кахарава	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	337
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	342
Musyeva Shoira Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari	348
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati.....	357
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	362
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdanova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	369
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot”	373
Хусанов Кахрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi.....	381
Bobayev Isroiljon Abdinabiyeich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida	397
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	400
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
Karimov Bekzodjon Ilxomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	420
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	426
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	432
Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	437
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	448
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari	453
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari	460
O'lokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	463
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati	469
Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	473
M. Yuldosheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	480
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	487
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi.....	492
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	499
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	503
Karamatova Noiba Husnitdinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	510
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	522
Sultanov Baxram Begdullayevich	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдужаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	564
Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida	591
Nabiyev Feruz Nurmurodovich	



**Shukurov Ilxom
Safarboyevich**

Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent
davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali

RESPUBLIKADA FERMER XO'JALIKLARGA XIZMAT KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISH VA AGROXIZMATLAR BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqola fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirishda sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari va agroxizmatlar bozorini taraqqiy ettirish mexanizmlarga bag'ishlangan bo'lib, unda agroxizmatning ushbu jarayonini tizimli tashkil etishdagi muhim xususiyatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: xizmat, agroxizmat ko'rsatish, agroxizmatlar bozori, mexanizm, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi, ekstensiv, intensiv omillar.

Abstract: This article is devoted to the ways of state support of the industry in the development of services for farms and the mechanics of the development of the agro-services market, in which the important features of this process of agro-tourism in the systematic organization are scientifically based.

Key words: service, agro-services, agro-services market, mechanism, state regulation mechanism, extensive, intensive factors.

Аннотация: Данная статья посвящена путям государственной поддержки отрасли в развитии услуг для фермерских хозяйств и механике развития рынка агроуслуг, в которой выявлены важные особенности этого процесса агротуризма в системной организации. научно обосновано.

Ключевые слова: услуга, агроуслуги, рынок агроуслуг, механизм, механизм государственного регулирования, экстенсивный, интенсивный факторы.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning muhim tarmogi hisoblangan qishloq xo'jaligida soha ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq xizmatlar – agroxizmatlar muhim hisoblanadi.

Agroxizmat fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi mahsulotni yetishtirishdan tashqari, yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash va boshqa xizmat turlarini ko'rsatuvchi va ularning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlovchi agrosanoat korxonalar majmuasini tashkil etadi. Agroxizmat ko'rsatuvchilar fermer xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq quyidagi xizmatlarni, jumladan, moddiy-texnika ta'minoti va transport xizmatlari, aloqa xizmati, urug'lik bilan ta'minlash, agrokimyo xizmati, melioratsiya xizmati, veterinariya va naslchilik xizmati, yem-xashak ta'minoti xizmatlari, mini bank xizmatlari va boshqa shu kabilardan iborat.

Hozirgi zamon agrar soha iqtisodiyoti intensiv asosda rivojlantirish chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Buning uchun esa fermer xo'jalik faoliyati samaradorligini oshiruvchi iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish, sohada yangi rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari tizimini shakllantirish lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik iqtisodchi olim Y.B.Korolyovning tadqiqotiga ko'ra qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirishni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish, hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini oshirish uchun ongli ravishda tartibga solinishi hisoblanadi ^[1].



Respublikamiz iqtisodchilaridan Q.J.Mirzayevning fikricha, fermer xo'jaliklariga "sifatli va o'z vaqtida agroservis xizmatlarini ko'rsatish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishga erishish mumkinligi" hamda "sifatli, kafolatli va arzon... xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi" muhim deb hisoblaydi [2].

G'.Ibragimov fikricha, qishloqda xizmat ko'rsatish obyektlari asosan xizmat ko'rsatish xarakteriga ega bo'lishi, ularning ko'payishi mehnatga yaroqli aholining bir qismini mehnat sig'imi yuqori bo'lgan, ammo aholi jon boshiga daromadlar kamayib borayotgan qishloq joylarida qishloq xo'jaligidan yangi tashkil etilgan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tkazish imkoniyatlarini yaratadi [3].

B.Mamatqulov fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish kambag'allikni qisqartirishning dolzarb masalalaridan biri hisoblab, chorva mollari zotini yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga puxta o'ylangan ishlar amalga oshirishni tadqiq qilgan [4].

I.Zasada dehqonchilikning shahar bosimiga, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga va rivojlanish imkoniyatlariga javob berish usuli tadqiqotning asosiy yo'nalishi bo'lib, qishloq tovarlari va xizmatlariga shahar talabi fermerlik faoliyatini ko'p funksiyali tarzda moslashtirish uchun harakatlantiruvchi omil sifatida tadqiq qilgan [5].

Bir qator xorijiy olimlar yuqori salohiyatli hududlardagi kichik fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishni faollashtirish, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish va qashshoqlikni kamaytirish uchun hosil oldidan va undan keyingi samarali xizmatlar muhim ekanligini asosladilar [6]. Ularning fikricha, kichik fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishdagi asosiy muammo xizmatlarni ishlab chiqish va yetkazib berishni muvofiqlashtirish bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ishda analitik taqqoslash, mantiqiy va qiyoslama tahlil kabi an'anaviy usullaridan foydalaniladi. Xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchilarning fermer xo'jaliklari iqtisodiy munosabatlariga oid ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilinib, natijalar asosida xulosalar shakllantirildi. Yuqorida keltirilgan usullardan foydalangan holda tahlillarni olib borish, yaqin kelajakda yurtimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini oshirib, ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Malumki, fermer xo'jaliklarga agroxizmat ko'rsatuvchi korxonalarning asosiy maqsadi bir tomondan, aholini oziq ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini yetarli darajada qondirish uchun fermer xo'jaliklarga agroxizmat ko'rsatish bo'yicha ehtiyojini qondirish va madaniyatli xizmat ko'rsatish bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'z faoliyatidan yuqori foyda (daromad) olishdir. Bu jarayon fermer xo'jaliklarida agroxizmat faoliyatini rivojlantirish omillari yuqori natijadorlikni taminlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agroxizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarni sotish natijasida iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikka erishadi, ishlab chiqarish talabini qondirib, agrar sohani iqtisodiy resurslarni takror aylanishni ta'minlaydi.

Agrar sohada fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va yuqori samaradorlikka erishish uchun salbiy omillarni bartaraf etish muhim hisoblanadi. Fermer xo'jaliklarga ko'rsatilayotgan agroxizmat ko'rsatishga salbiy ta'sir etuvchi omillar ham mavjud bo'lib bular quyidagilardan iborat:

- agroxizmat ko'rsatuvchi korxona ishlarining fermer faoliyatida ishtirok etishdan manfaatdorligi kamligi;
- agroxizmat ko'rsatish korxonalarida nisbatan xizmatlar narxining yuqoriligi;
- agroxizmat ko'rsatish korxonalarning bugungi raqobat sharoitiga moslasha olmayotganligi;
- sotilayotgan agroxizmatlar assortimentining nisbatan kamligi;
- agroxizmat ko'rsatish sifati va hajmining nisbatan pastligi va boshqalar.


Tadqiqotlar shuni kursatadiki, fermer xo'jaliklari faoliyatini intensiv asosda rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun ekstensiv va intensiv omillar ta'sir qiladi. O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekstensiv va intensiv omillar quyidagicha guruhlandi (1-rasm).

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida olib borilayotgan islohotlar korxonalarni mustaqil ravishda faoliyat yuritishi, talab va taklif asosida tovarlar assortimentini shakllantirishi, samaradorlikni ta'minlash choralari ishlab chiqishi zamon talabi hisoblanadi.

Tadqiqot natijasiga ko'ra, agroxizmat omillar ta'siri natijadorligini oshirib, samaradorligiga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- xizmatlar sotilmay qolishining oldini olish maqsadida iste'molchilar talabini chuqur o'rganib, so'ngra xizmatni amalga oshirish;

- o'z vaqtida xizmat ko'rsatilmaganlik uchun moddiy javobgarlikni oshirish;
- ishonchli agro xizmat subyektlari bilan doimiy munosabat o'rnatish;
- xizmatlar assortimentining turli tumanligini ta'minlash;
- ko'rsatilayotgan agro xizmatining yuqori darajasiga erishish;
- xizmatlarning yuqori malakali bo'lishlari;
- xizmatlar narxining boshqa raqobatchilarga nisbatan pastligi;
- xizmatlarni doimiy iste'molchilarini rag'batlantirib turish;



1-rasm: Fermer xo'jaliklarida agroxizmat faoliyatini rivojlantirish omillari*

*Muallif ishlanmasi

Hozirgi kunda dunyo yalpi ichki mahsulotining 60-65 % dan ziyod qismi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi yurtimizda ham jadal rivojlanish tendensiyasiga ega va ular orasida agroxizmat muhim ahamiyatga ega. Bu sohani samarali rivojlantirish yo'llaridan biri bu xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalarda xarajatlarni kamaytirish, davlat aralashuvini kuchaytirish zarur.

Tadqiqot shuni ko'rsatmoqdaki, agroxizmatlari alohida soha sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashi va tartibga solish jarayonida o'ziga xos xususiyati mavjud.


Bular jumlasiga, birinchidan, agroxizmatlari faoliyati davlat tomonidan belgilab beriladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslanishi, ikkinchidan esa davlat tovarlarga narx-navoni o'rnatilishida, aholi daromadlarini hisobga olish zaruriyati va bunda ayniqsa aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim instrument sifatida foydalanishi uchun davlat aralashuvi ifodalanadi.

Uchinchidan, agroxizmat sifatli, malakali kadrlar yetkazib berishda davlatning qo'llab-quvvatlash, to'rtinchidan, agroxizmatlarini shaffof va adolatli faoliyati uning sohani modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash ayniqsa rivojlantirish uchun davlat aralashuvi qo'llab-quvvatlash. Beshinchidan, agroxizmatlari sohada ish-



lovchi xodimlarni tovar aylanishi yuqori bo'lganligi sabab mulk egalari noqonuniy daromad to'plashni imkoniyatini yuqoriligi sababli davlat aralashuvi, asosan, moliya, soliq, sug'urtalash shaffof tizimini yo'lga qo'yish.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda davlat tomonidan agroxizmatlarini qo'llab-quvvatlashning 2 ta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin. Ularga pul-kredit siyosati, fiskal siyosat va adminstrativ, ma'muriy-huquqiy usullar kiradi. Agroxizmatlarni qo'llab-quvvatlash uchun markaziy bank tomonidan maqsadli valyuta intervensiyalarining o'tkazilishi, tadbirkorlik subyektlarini subsidiyalash, mikroqarz ajratish kabilan muhim ahamiyatga ega.



2-rasm: Davlat tomonidan agroxizmatlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash turlari*

*Muallif ishlanmasi

Agroxizmatlarni davlat tomonidan rivojlanish usullarida muhim iqtisodiy usullardan biri hisoblanadi. Davlat "yumshoq" pul kredit siyosatini amalga oshirishda, ya'ni ssuda foizlarini pasaytirib pul taklifini ko'paytirishi tadbirkorlik subyektlari uchun aylanma mablag'larning ko'payishi ta'minlaydi. Ammo bunda, albatta, inflyatsiya darajasining keskin oshib ketishini oldini olgan holda qaror qabul qilish muhim hisoblanadi.

Yana bir davlat tomonidan agroxizmatlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash turi bu fiskal siyosat hisoblanadi. Fiskal siyosat deganda soliqlar oqimini nazorat qilish siyosati tushuniladi. Bunda agroxizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukini pasaytirish, soliq ta'tillarini berish, soliq imtiyozlarini ajratish kabi chora-tadbirlarini sanab o'tish mumkin.

Davlat (adminstrativ) ma'muriy-huquqiy usullar orqali fermerlar subyektlari faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillar ta'sirini pasaytirish imkoniyatiga ega. Masalan, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, biznes tekshiruvlari sonini qisqartirish kabilarni misol keltirish mumkin.

Agroxizmatlarni davlat tomonidan tartibga solish asosida respublika iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi quyidagi yangi shart-sharoitlar va imkoniyalari vujudga keladi. Jumladan:

- agrar sohani ayniqsa fermer xo'jaliklari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida (qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratib) tezkor rivojlanishini ta'minlaydi;
- agrar sohada ishga muhtoj aholini ish bilan ta'minlashga yordam beradi;
- qishloq xo'jaligida narxlar barqarorligiga erishishga imkon yaratadi.
- respublika qishloq xo'jaligi va uni hududlarini rivojlantirishda ijtimoiy – iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
- respublikada aholini eng muhim zaruriy qishloq xo'jaligi oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

O'zbekistonda agroxizmatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosida muhim meyoriy, huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lib, ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga asosan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da o'z ifodasini topgan. Jumladan, strategiyaning 4-maqsadida ta'kidlangidek "Davlat boshqaruv organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish belgilangan". Shuningdek, ushbu strategiyada ko'rsatilgan "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutuvchi "xalqparvar davlat milliy dasturi izchil amalga oshirilishini ta'minlash" vazifasi belgilab berilgan.



O'zbekiston Respublikasida davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar asosida agroxizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- agroxizmatlari sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- agrar sohalari bo'yicha fan, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-texnik texnologiyaning rivojlanishiga ko'maklashish;
- fermer xo'jaliklari faoliyatini raqamlashtirish asosida agrar sohasida turli korrupsion holatlarni oldini olish va "pinhoniya iqtisodiyot"ga barham berish
- agrar sohasi bo'yicha iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar bilan hamkorlik integratsiya aloqalarini kuchaytirish
- xorijiy kapital asosida agro xizmat subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
- tashqi va ichki investorlarni qishloq xo'jaligi fermer xo'jaligiga kiritishni ko'paytirish va boshqa shu kabilardan iborat.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikada agroxizmatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmlari mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat (1-jadval)

1-jadval: Agroxizmatlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlari*

Iqtisodiy-moliyaviy	Tashkiliy-huquqiy
1. Agroxizmatlarning samaradorligini oshirishdagi soliq va narx siyosatini amalga oshirish	1. Agroxizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalarning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini rivojlantirish
2. Agroxizmat subyektlarida yangi ish o'rinlari hisobiga aholi bandligini ta'minlash	2. Innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlarining tashkiliy infratuzilmasini rivojlantirish, savdo sohasida intellektual kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish, mavjudlarini malakasini oshirish va ularning qayta tayyorlovini yo'lga qo'yish.
3. Agroxizmatlarni amalga oshiruvchi subyektlar (korxonalarni) modernizatsiyalash va xizmatlarni diversifikatsiyalash	3. Agroxizmatlarni rivojlantiruvchi hududiy innovatsion dasturlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
4. Innovatsion xizmatlarni qo'llab-quvvatlash va agroxizmatlar va ular ko'lamini kengaytirish	4. Agroxizmatlar va ilm-fan o'rtasidagi integratsion aloqalarni kuchaytirish
5. Agroxizmatlar bo'yicha qulay innovatsion moliyaviy muhit yaratish	5. Agroxizmatlarni ko'rsatish uchun raqamli axborot bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish
6. Agroxizmat sohasida imtiyozli kreditlash tizimidan foydalanish	6. Agroxizmatlar sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish
7. Agroxizmatlarni rivojlantirishda budjet-soliq (fiskal) siyosatni kengaytirish	7. Agroxizmatlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan subyektlar manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish
8. Agroxizmatlari bo'yicha investorlarga imtiyozlar berish va qulay investitsion muhit yaratish	8. Agroxizmatlar bo'yicha korporativ shartnomalar va intellektual mulkni qonun doirasida himoya qilish
9. Agroxizmatlarga jalb etilgan davlat resurslaridan samarali foydalanish	

*muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlatning agroxizmatlari sohasida uni qo'llab-quvvatlashi natijasida yuqori sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlashda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, respublikamizda agroxizmatlari jarayonini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi.

1. Agroxizmatlari sohasida kreditlash tizimini takomillashtirish asosida va kredit resurslari bilan ta'minlash.
2. Agrar sohasida xususiy tadbirkorlik uchun ko'paytirish soliqqa tortish va soliq yukini kamaytirish tizimini takomillashtirish
3. Agroxizmatlari sohasida moddiy – texnik tizimni takomillashtirish
4. Agrar sohasida tashkiliy – ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy takomillashtirish
5. Davlat tomonidan agroxizmatlari bo'yicha huquqiy – me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish



6. Agroxizmatlarni raqamlashtirish, sohaga innovatsiyalar, yangi g'oya yangi ishlanma yaratishni ko'paytirish va ularning mualliflarini himoyalash(patentlar berish).
7. Agroxizmatlari bo'yicha barcha mulk shaklidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarga davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantiruvchi, raqobatbardoshlikni ta'minlovchi turli imtiyozlar berish.

Savdo sohasini korrupsiyadan holi sohaga aylantirish, "yashirin iqtisodiyot"ni bartaraf etish, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da ta'kidlanganidek, "Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan [7].

Tadqiqot jarayonlarida O'zbekistonda agroxizmatlarni davlat tomonidan tartibga solishning sohada quyidagi yangi imkoniyatlarini ochib berish ilmiy asoslandi:

- Respublikada agroxizmatlarni ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan tashkil etiladigan kreditlash va kredit resurslari bilan ta'minlash va quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan: bunda
- kredit mablag'larini rivojlantirish hisobiga agroxizmatlarni ko'rsatishni uzluksizligini ta'minlash;
- kredit mablag'lari hisobiga yangi texnika va texnologiyalarini savdo korxonalariga jalb etib xarajatlarni tejash imkoniyati oshiriladi.
- agro xizmat korxonalariga qarz berish va ushbu qarzni undirish kredit mablag'lari orqali amalga oshirishi natijasida agrar sohasini iqtisodiy o'sishi ta'minlanadi.

Davlat tomonidan agroxizmatlarni qo'llab-quvvatlash va tartibga solishda soliq siyosati, ya'ni soliq yukini kamaytirish soliq kafolatlari va imtiyozlarini berilishi muhim hisoblanadi. Agrar sohasidan soliq tizimi orqali sohani tartibga solish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- soliq yukini kamaytirish natijasida soliq to'lovchilar (savdo xizmat korxonalari) ixtiyorida qolgan mablag'lardan samarali foydalanish orqali xarid tartibini o'sishini ta'minlaydi.
- soliq tizimini soddalashtirish natijasida soliq stavkalarini pasaytirish, o'z navbatida savdoda xususiy biznes kapital uchun qulay va kafolatlangan muhit yaratiladi.
- agroxizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarga beriladigan soliq imtiyozlari asosida xorijiy savdoda tovarlar eksportini har tomonlama rag'batlantirilib natijada valyuta zaxiralari kengayadi.

Agroxizmatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda moddiy – texnika bazasini mustahkamlash tizimini takomillashtirish asosida soha samaradorligiga erishiladi. Bunda davlat tomonidan olib borilgan islohotlar agroxizmatlarini zamonaviy asosda qayta jihozlash, yangi raqamli xizmat ko'rsatish) amalga oshiriladi. Bunda:

- agroxizmatlar ko'rsatuvchi yuqori texnologiyalar bilan qurollangan zamonaviy moddiy – texnik bino inshootlari shakllantiriladi.
- agroxizmatlarini moddiy – texnika bazasini rivojlantirishning kelguvchi taraqqiyotini belgilovchi davlat dasturlari ishlab chiqiladi.
- dunyo tajribasidan foydalangan holda jahon andozasiga mos agroxizmatlarini amalga oshiruvchi zamonaviy texnika, texnologiya va zaruriy moddiy – texnik asbob – uskunalar olib kelinadi.

Umuman, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida agrar xizmat ko'rsatish sohasi va uning bozorini davlat tomonidan tashkiliy – iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan, ularni raqamli iqtisodiyot va bozor talablariga mos shakllantirish zarur hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagilardan kelib chiqib davlat tomonidan xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari asosida O'zbekistonda agroxizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Agroxizmatlar bozori tizimida davlat organlarining tadbirkorlar va barcha toifadagi iste'molchilar bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun davlatning yagona elektрон ma'lumotlar bazasini shakllantirish.
2. Agroxizmatlar bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish va saqlash bo'yicha maqsadli va manzilli dasturlar hamda ular ijrosini ta'minlash maqsadida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishda davlatning bosh islohotchi bo'lishiga ustuvorlik berish.



3. Iqtisodiy tizimning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash uchun respublika davlat boshqaruvida virtual va elektron xizmat turlarini ko'paytirish, tadbirkorlar va iste'molchilarning raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritishi uchun tizimli ishlarni amalga oshirish.
4. Davlat tomonidan agrar xizmat ko'rsatish subyektlarini rivojlan-tirish uchun tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan turli byurokratik va boshqa to'siqlarni bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratish.
5. Agroxizmatlar sohasi uchun yuqori qobiliyatli bilimlarga ega malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ular esa tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korolyov B.Y. Menedjment v APK. Uchebnik. –Rossiya.: 2007. –51 s.
2. Mirzayev Q.J. Agroservis iqtisodiyoti. Monografiya. – T.: "Iqtisod – Moliya", 2013. –212 b.
3. Ibragimov G.A. Agroxizmat korxonalari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari. // Journal of Economics, Finance and Innovation. –2023 Jun 12;1(3): 84-b.
4. Mamatkulov B. Fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish-kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Iqtisodiyot va ta'lim. 1-son 2021. – b. 232-238.
5. Zasada I. Multifunctional peri-urban agriculture—A review of societal demands and the provision of goods and services by farming. Land use policy. –2011. 1; 28(4):639-48.
6. Poulton C, Dorward A, Kydd J. The future of small farms: New directions for services, institutions, and intermediation. World development. –2010. 1;38(10):1413-28.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.